

„ODAM BO'LIQ QIYIN ASARIDA" KO'CHIM VA UNING TURLARI

Davronova Ozoda ¹

¹ Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti 4 – kurs talabasi

ARTICLE INFO

ABSTRACT:

ARTICLE HISTORY:

Received: 27.11.2025

Revised: 28.12.2025

Accepted: 29.03.2025

KEYWORDS:

Odam bo'lish qiyin,
metafora , ko'chim,
istiora, tashbeh, adabiy
tahlil, lingvistik tahlil,
kinoya, mubolag'a,
timsol, tazod.

Ushbu maqolada O'lmas Umarbekovning „Odam bo'lish qiyin asarida" gi ko'chimlar ya'ni (istiora, tashbehlar, metaforalar, kinoya, tazod va badiiy tasvir vositalari) tahlil qilinadi. Ushbu ko'chimlar asarni g'oyalarini kengroq ochishga yordam bergan. Bundan tashqari, maqolada boshqa asarlari bilan ham uzviy bog'lanadi ya'ni taqqoslanadi.

KIRISH. Inson hayotida yashar ekan hayotida turli xil sinovlarga duch keladi. Hayotdagi to'siqlarni yengib o'tish , albatta, insonni kuchli irodasiga bog'liq. „Odam bo'lish qiyin" ushbu asar O'lmas Umarbekovning ilk katta asari hisoblanadi va u ellik yildan buyon hozirgacha qayta – qayta nashr qilinib kelmoqda va turli tillarga ham tarjima qilingan. 1969 – yilda „ Yosh Gvardiya" nomli jurnalda nashr qilingan. Ushbu asar qahramonlarida ko'chimning ko'p turlari qo'llangan va bu asarni yanada jonli tasvirlashga yordam bergan. Bu asar real tarzda hayotdan olingan, shuningdek o'ziga jalb qila oladigan asardir. Asarda ota – onaga hurmat, qadr – qimmat, odamiylik tuyg'ulari, yosh qalbning tuyg'ulari, o'zbeklarning soda va mehribon ekanligi, o'spirin bolaning orzulari keng tarzda yoritib berilgan asardir.

Badiiy tasvir – bu adabiyotda hodisa , narsa, holat, his – tuyg'uni o'quvchiga ta'sirchan qilib, ya'ni chiroyli holatda yetkazib berish.

Ko'chim – Adabiyotda ibora yoki so'zni ko'chma ma'noda qo'llash ya'ni ko'chimlar orqali so'z yoki gpni bevosita emas, balki o'xshatish, yashirinlik, orttirib yoki teskari

ma'noda qo'llash. Uning adabiyotdagi o'rni oddiy qilib ma'lumot berilmaydi, balki unda his – tuyg'uni uyg'otadi. Shuningdek, obrazdagi tushunchalarni jonlantiradi. O'z navbatida ko'chim ham turlarga bo'linadi. Bular: Tashbeh, istiora, kinoya, mubolag'a, tazod, timsol, metafora kabi turlarga bo'linadi.

Metafora – bu uch xil usulda o'xshashlikni ifodalaydi. Belgi o'xshashligi, harakat o'xshashligi va holat o'xshashligini ifodalab beradi. Bir hodisa, belgi yoki harakat o'xshashligini boshqa bir harakat, belgi yoki holatga o'xshatish orqali ifodalash.

Asarda metafora orqali ma'no ko'chishini quyidagi holatlarda ko'rishimiz mumkin.

„Hayot - katta imtihon” – Bu so'zlar orqali hayot murakkab ekanligi va inson duch keladigan sinovlarni tasvirlash uchun ham quyidagi gap aytib o'tilgan.

Istiora – (arabchadan „ qarzga olish”) – bunda istiora 2 narsa o'rtasidagi

o'xshashlikka asoslanadi. Unda o'xshagan hamda o'xshatilgan kabi unsurlardan tashkil topadi.

Tashbeh – bu badiiy tasvir vositasi hisoblanadi. Bunda ham o'xshashlik orqali ma'no ko'chadi. Bir narsa yoki hodisaga „ dek”, „kabidir”, „singari” , „go'yo”... kabi so'zlar orqali ma'no ko'chadi.

Masalan:

* „ Hayot go'yo qiyin bir imtihon edi.”

Ushbu gapda „ go'yo” so'zi orqali ko'chim holati kuzatilyapdi va ushbu gapda hayot imtihonga o'xshatilgan. Inson hayotdagi sinovlarni o'quvchiga sinovlarni esa imtihonga o'xshatishgan.

* „ Onasining ko'zlari yulduzdek chaqnadi.”

Ushbu gapda aniq tashbeh va – dek qo'shimchasi orqali ma'no ko'chish holati kuzatilgan.

Onaning quvonchli ko'zlari yulduzga o'xshatilgan ya'ni bu ko'zlarni yaltirab turgani tasvirlangan.

* U g'amdan ezilib, novdaga osilgan yaproqdek qaltiradi.”

Ushbu gapda – dek qo'shimchasi orqali ma'no ko'chgan va tasvirda Hasan qiyin holatga tushganligidan qaddini novdaga osilgan yaproqga o'xshatadi.

Kinoya – bu ham badiiy tasvir vositasi hisoblanib, qahramonning so'zlarida yoki muallifning nutqida ishlatiladi.

Masalan:

* „O'qimasa ham odam bo'ladi – da.”

Ushbu gapda yashirin ma'noda kinoya qo'llangan va bu g'oya ilgari surilgan. O'qimasang, ham odam bo'la olmaysan

*, „Hamma senga havas qiladi, hech ham dam olmaysan – ku.”

Ushbu gapda mehnat maqtovga emas, balki ushbu gap orqali Hasanning mehnatiga achinish holati kuzatilmoqda.

Mubolag'a – Bunda biron bir hodisani yoki harakatni haddan tashqari orttirib tasvirlash mubolag'a deyiladi hamda fikrni kuchaytiradi.

Ushbu asarda mubolag'a san'atini uchratishimiz mumkin.

Masalan:

*, „U ming marta odam bo'lishga va'da bergan, lekin yana o'sha.”

Ushbu gapda „ ming marta ” so'zida mubolag'a kuzatilyapdi va u juda ko'p va'da bergan ekanligi aytilgan.

*, „U har kuni ming bor o'zini qarg'ardi.”

Ushbu gapda ham „ ming bor” so'zi qo'llanilyapdi va bu gapda ham Jabborqulning pushaymon ekanligi kuchli tarzda ko'rsatilyapdi.

Bundan tashqari bu asarda tazod ham uchraydi va bu qahramonlar o'rtasidagi munisabatlarga borib taqaladi.

Asarda – G'ofur aka va uning o'g'li – Abdulla o'rtasidagi munosabatda katta tazod uchraydi.

G'ofur aka- halol, mehnatkash, pokiza niyatli, boshqalarga yordamini ayamaydigan vijdonli, kamtarin inson va amalga intilmagan, amalga tekkanda ham o'zini yo'qotmadi, o'g'li Abdulla bo'lsa, shuhratparast, ikkiyuzlamachiliklarga hamda obro' – e'tiborga yetishish uchun o'z vijdonini boy beradi va yaxshi ishlardan butkul yiroqda, shuningdek hayotga yengil qaraydigan shaxs sifatida gavdalantirilgan.

Bu obraz orqali O'lmas Umarbekov shuni ta'kidlamochiki, hayotga jiddiy va ma'suliyatli yondashuv bilan loqaydlik o'rtasidagi tazodni ko'rsatmoqda.

Timsol – adabiyotda fikrni yoki hissiyotlarni ramziy ya'ni yashirin usulidir. Timsol orqali yashirin ma'no beriladi. Bu asarni ta'sirchan va badiiy qilishda yordam beradi. Asarni ma'nosini boyitib unga bo'lgan fikrlashni oshirishga yordam beradi.

O'lmas Umarbekovning „Fotima va Zuhra” asari bilan „ Odam bo'lish qiyin” asarining o'xshash va farqli jihatlari shundaki, bu ikki asarda ham yoshlar va kishilarning xulq – atvorida ko'ringan salbiy jihatlari bir – biriga o'xshashdir.

„ Fotima va Zuhra” asaridagi mavzu shundan iboratki, hayotda mehr, sadoqat, kechirim va haqiqiy baxtning qadriyat sifatida namoyon bo'lishi kuzatiladi. Shuningdek, ikki xil ayol

taqdirining sabr – toqatli ekanligi va orasidagi mehr, tushunmovchilik hamda hayotiy sinovlar ham tasvirlanadi.

„ Odam bo’lish qiyin” asarida odam bo’lish, ya’ni vijdonli, halol bo’lish kabi g’oyalar ilgari surilgan. Odamiylik, poklik va hayotning achchiq haqiqatlarini aks ettiruvchi haraktelar keltirilgan. Shuningdek, inson va jamiyat o’rtasidagi kurash ya’ni vijdon va nafsi o’rtasidagi ziddiyatlar kuzatiladi.

Bu ikki asarni farqli jihatidan shu anglandiki, „ Fotima va Zuhra” asarida ayol taqdiri, oilaviy kechinmalar markazida bo’lsa, „ Odam bo’lish qiyin” asarida inson va jamiyat, vijdon va halollik masalalari keltirilgan.

O’xshash jihati shundan iboratki, bu iki asarni ham O’lmas Umarbekov yaratgani va psixologik tasviri va ruhiy kurashi chuqur aks etganligidadir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, asarda hayotning haqiqatlari, orzu va intilishlar, adolat va nohaqlik kabi kurashlar keng usulda ochib berilgan. Hayotda o’tkinchi ya’ni shuhratparastlik kasaliga chalingan insonlar ham kam emas. Bu asar mana shunday jihati bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Inson bilim olgani bilan uni hayotga tatbiq eta olishi insonda yaxsh farosatni talab qiladi. Bu asarda bo’lsa, bosh qahramon Abdulla bilim olgani bilan uni hayotda tatbiq qilishga kelganda adashdi va insoniyligini boy berdi. O’lmas Umarbekov ushbu asarda odamiylik har qanday kasb va olim bo’lishdan ko’r chin inson bo’lish kerak ekanligini tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’lmas Umarbekov. „ Odam bo’lish qiyin”. Yangi asr avlodi Toshkent – 2019
2. Muhammedova M. Allamuradova S. O’lmas Umarbekovning „ Odam bo’lish qiyin” asarining badiiy tahlili. (2024)
3. O’tkir Hoshimov. Umr savdosi. (1998)
4. www.ziyo.com
5. geogle.
6. Wikipedia